

"O'zkimyosanoat" AJ delegatsiyasining Tatariston Respublikasiga tashrifi doirasida ilmiy va texnologik hamkorlik masalalari muhokama qilindi

// 14.07.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-delegatsiyasining-tatariston-respublikasig>



"O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisi birinchi o'rinbosari Yevgeniy Korjikov hamda Mahalliyashtirish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish va importni maqbullashtirish bo'limi boshlig'i Abduhomid Salomovlar Tatariston Respublikasiga safari davomida Qozon federal universiteti va Tatariston Respublikasi Fanlar akademiyasida bo'ldilar.

Tashrifdan ko'zlangan asosiy maqsad — kompozit materiallar, neftkimyo, farmatsevtika va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar sohasida kichik hajmdagi kimyoviy ishlanmalar bo'yicha ilmiy va texnologik hamkorlik istiqbollarini muhokama qilishdan iborat bo'ldi.

Delegatsiya a'zolari QFU tarkibidagi A.M. Butlerov nomidagi kimyo instituti laboratoriyalarida bo'lib, geterogen kataliz va polimer kompozitlar yaratish sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar bilan yaqindan tanishdi.



Shundan so'ng QFU rahbariyati bilan uchrashuv hamda istiqbolli ilmiy loyihalar taqdimoti bo'lib o'tdi. QFUning raqamli transformatsiya va innovatsion faoliyat bo'yicha prorektori D. Pashin universitetning 220-yildan ortiq ilmiy salohiyatiga ega ekanini ta'kidlar ekan, ushbu tajriba asosida sanoatga yo'naltirilgan yangi texnologiyalar jadal rivojlantirilayotganini alohida qayd etdi. D.Pashin xalqaro hamkorlik, jumladan O'zbekiston sanoat korxonalari bilan munosabatlarni yanada mustahkamlash muhimligini ta'kidlab, aniq hamkorlik yo'nalishlari bo'yicha takliflar bildirdi.

Uchrashuvda "Kichik hajmdagi kimyoviy texnologiyalar" texnoparki direktori Mixail Varfolomeyev tomonidan universitet salohiyati asosida ishlab chiqarilayotgan reagentlar va katalizatorlar bo'yicha amaliy loyihalar taqdim etildi. Ushbu loyihalar ayrim sanoat korxonalarida amaliyotda qo'llanila boshlangani alohida qayd etildi.

Suhbat chog'ida texnologiyalarni O'zbekistonga transfer qilish, qo'shma ilmiy laboratoriyalar tashkil etish kabi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratildi.



Shu bilan birga, "O'zkimyosanoat" AJ delegatsiyasi QFU tarkibidagi Farmatsevtika ilmiy-o'quv markazi faoliyati bilan tanishdi. Universitetning qo'shimcha ta'lim va kasbiy qayta tayyorlash bo'yicha prorektori Ilnur Xayrullin bilan ta'lim dasturlari yuzasidan hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

Mazkur uchrashuv O'zbekiston va Tatariston o'rtasida barqaror ilmiy-texnikaviy va ishlab chiqarish hamkorligini yo'lga qo'yishdagi muhim qadamlardan biri bo'lib, yangi loyihalar va qo'shma tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlar eshigini ochdi.



Qozon shahri va Tatariston korxonalariga tashrif doirasida "O'zkimyosanoat" AJ vakillari Tatariston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti Rifkat Minnixonov bilan uchrashuv o'tkazdilar.

Unda kimyo sanoati sohasidagi hamkorlik, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar tayyorlash masalalari ko'rib chiqildi. Shuningdek, O'zbekiston va Tatariston o'rtasidagi ishbilarmonlik aloqalarini mustahkamlash bo'yicha fikr almashildi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati